

## **IX** 9Belgilar

**Xudo  
hammani  
sevadimi?**



**Matt  
MakKulloh**

**Jamoatga Doir Savollar**

## Jamoatga doir savollar to'plami haqidagi ijobiy fikrlar

“Masihiylar juda jiddiy savollarga duch kelishadi. Muqaddas Bitiklar qanday qilib jamoatni barpo etadi, sajdani tartibga keltiradi, xizmatni tashkil qiladi va kalomdagi yo'lboshchilikni ta'riflaydi? Bu “9Belgilar”ga tegishli ushbu yangi to'plamda aniq, diqqat bilan va qiziqarli tarzda javob berilgan savollardan bir nechta misollaridir. Men bu xizmat uchun va uning ko'plab sodiq jamoatlarga favqulodda sog'lom va umid beruvchi ta'siri uchun minnatdorman. Bu to'plamni bajonidil tavsiya qilaman.”

**R. Albert Moller** (R. Albert Mohler Jr.),  
Janubiy baptist ilohiyot seminariyasi prezidenti

“Samimiy savollar mulohaza bilan javob berishga arziydi. Agar siz bu savollarga javob berishni nimadan boshlashni bilmasangiz, bu to'plam hovuzga sakrash uchun trampolin sifatida sizga xizmat qilsin. Bu kichik kitoblar qiziqarli darajada maqsadli va bitta do'st yoki yuzlab do'stlar bilan birga o'qish uchun ajoyib tarzda mos keladi.”

**Gloriya Furman** (Gloria Furman),  
*Vazifaga ega onalik xizmati va  
Cho'ponning xotini* kitoblari muallifi

“Cho’pon sifatida menga ko’p savollar berishadi. Menga xushxabarni tushunishni istayotgan imonsizlar, endi hayotida nima qilishni bilmayotgan yangi imonlilar hamda imonli oila a’zolari, qarindoshlari, do’stlari, qo’shnilari va hamkasblari savollariga javob olishni istayotgan yetuklikka intilayotgan imonilar murojaat qilishadi. Aynan shunday paytlarda ularning savollariga qisqacha javob bera oladigan va keyingi o’rganish uchun to’g’ri yo’nalish ko’rsata oladigan kitobim bo’lishini istardim. Jamoatga doir savollar to’plami ana shu imkoniyatni taqdim qiladi. Har bir risolada keltirilgan masala kalomga asoslangan, ixcham va amaliy tarzda yoritilgan. To’plam Jamoat savollari deb nomlansa bo’ladi, lekin u “Jamoat javoblari” deb atalishi ham mumkin edi. Men muntazam ravishda ularning bir nechtasini tanlab, boshqalar bilan bo’lishishmoqchiman. Sizga ham shunday qilishni tavsiya qilaman.”

**Xuan R. Sanches** (Juan R. Sanchez),  
“High Pointe” nomli baptist  
jamoatida katta cho’pon,  
Austin shahri, Texas

“Biz, masihiylar qalin va qimmat kitoblarni varaqlamasdan turib, jamoatdagi masihiy hayot haqida umumiy savollarimizga ishonchli javoblarni qayerdan topa olamiz? Jamoatga doir savollar to’plami bizning ehtiyojlarimizni kalomga asoslangan, chuqur o’ylangan va amaliy bo’lgan javoblar bilan qondiradi. Cho’ponlar uchun bu to’plam jamoat a’zolarini chuqur donolik va mustahkam birlik sari yo’naltirish uchun ishonchli manba bo’lib xizmat qiladi.”

**Rey Ortlund** (Ray Ortlund),  
Qayta tiklash xizmatlari prezidenti



**Xudo  
hammani  
sevadimi?**



# Jamoatga Doir Savollar

*Xudo hammani sevadimi?*

**Matt Mak Kulloh**

*Menga ustozlik qiladigan odamni qanday topsam bo'ladi?*

**J. Garrett Kell**

*Muqaddas Kitobni o'qishdan qanday qilib ko'proq zavqlana olaman?*

**Jeremy Kimbl**

*Boshqacha siyosiy qarashga ega bo'lgan jamoat a'zolarini qanday seva olaman?*

**Jonatan Liman va Andy Naselli**

*Jamoatimda qanday xizmat qilishim mumkin?*

**Mettyu Emadi**

*Jamoatimiz qanday qilib sadoqatli cho'ponni topa olishi mumkin?*

**Mark Dever**

*Ayollar mahalliy jamoatda qanday qilib ruhan o'sishlari mumkin?*

**Keri Folmar**

*Jamoatdagi intizomiy chorani qo'llash sevgi amalimi?*

**Jonatan Liman**

*Ibodat qilishni xohlamasam-chi?*

**Jon Onvuchekva**

*Jamoatga borishni xohlamasam-chi?*

**Gunner Gundersen**

*Xushxabarchilik faoliyatimdan qoniqmasdan, umidsizlikka tushsam-chi?*

**Isaak Adams**

*Hozir men masihiyman, nima qilishim kerak?*

**Sam Emadi**

*Rabbimiz Kechligi nima uchun bu qadar muhim?*

**Aubrey Sequeira**



*Nima uchun cho'mdirilishim kerak?*

**Bobby Jamieson**

*Jamoatimga nima uchun qurbonlik berishim kerak?*

**Jamie Dunlop**

*Nima uchun jamoatga qo'shilishim kerak?*

**Mark Dever**

*Jamoatning vazifasi nima?*

**Jonatan Liman**

*Men najotga erishganimga qanday amin bo'lishim mumkin?*

**Jeremy Pierre**

*Ayol kishi cho'pon bo'lishi mumkinmi?*

**Greg Gilbert**

*Jamoatga qatnamaydigan a'zolar borasida nima qilishimiz mumkin?*

**Aleks Dyuk**

*Men xizmatga da'vat etilganmanmi?*

**Brad Vhiler**

*Xalqaro elchilik xizmatini qanday qo'llab-quvvatlashim mumkin?*

**Mark Kollins**

*Xushxabar sog'lik va farovonlik va'da qiladimi?*

**Shon DiMars**

*Jamoatni kim boshqaradi?*

**Sam Emadi**

*Diakonlar (xizmatchilar) nima qilishadi?*

**Juan Sanchez**

*Men jamoatda nimani izlashim kerak?*

**Aleks Dyuk**

*Do'zax haqqoniyimi?*

**Deyn Ortlund**

*Men nimaga ishonishim ahamiyatga egami?*

**Samuel James**

# Xudo hammani sevadimi?

Muallif Matt Mak Kulloh  
[Matt McCullough]

**IX** 9Marks

*Xudo hammani sevadimi? Matt Mak Kulloh tomonidan*

*Mualliflik huquqi © 2023 yil*

*Marvarid Xizmatlari*

*Does God Love Everyone? by Matt McCullough*

Copyright © 2021 "9Marks"

Crossway

1300 Crescent ko'chasi

Uiton shahri, Illinois shtati 60187 da chop etilgan.

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks.

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved.

Muqova dizayni: Jordan Singer

First printing 2021.

AQShda chop etilgan.

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2023 Muqaddas Yozuvning So'zma-So'z Tarjimasidan olingan [SST]. Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

9Marks ISBN: 978-1-960877-47-5

Chunki Xudo dunyoni shunchalik sevdiki,  
O'zining Yagona O'g'lini berdi, toki Unga  
ishongan har bir kishi halok bo'lmasin,  
balki abadiy hayotga ega bo'lsin.

Yuhanno 3:16





Xudo hammani sevishiga ishonasizmi? Agar ishonsangiz, sizning fikringizga qo'shiladiganlar ko'p.

Bir necha yil avval bir guruh tadqiqotchilar odamlarning Xudo haqida qanday fikrda ekaniga doir so'rovnoma o'tkazganlar. Ko'plab qiziqarli narsalar orasida ular har to'rtta voyaga yetganlardan uchtasi Xudoga yoki kamchiliklariga qaramasdan, barcha odamlarni sevadigan oliy kuchga ishonishlarini aniqlaganlar.

Ushbu so'rovnoma natijasiga qanday qarasangiz ham, bu katta raqam hisoblanadi. Lekin meni eng qiziqtirgan narsa shundaki, bizni ajratadigan barcha toifalarga qaramay Xudoga bo'lgan bunday ishonch yuqoriligicha qolmoqda.

So'rovnomada ayollarning foizi biroz yuqoriroq bo'lgan (82 foiz), shunga qaramay Xudo hammani yaxshi ko'rishiga ishonadigan erkaklar 72 foizni tashkil qilgan.

Oltmish besh va undan katta yoshdagi odamlar Xudo hammani birdek sevishini tasdiqlaydi (83 foiz), lekin o'ttiz va qirq yoshlar orasidagilarning 72 foizi ham shu fikrga qo'shilgan.

Qanchalik ma'lumotli bo'lsangiz, Xudoning sevgisiga ishonishingiz ehtimoli shunchalik kam bo'ladi, lekin shunga qaramay, kollej ma'lumotiga ega bo'lgan 70 foiz yoshlar shu fikrga ishonadi.

Birorta dinga mansub bo'lmagan so'rovnoma ishtirokchilarining yarmi mehribon oliy kuchning borligiga ishonadi.<sup>1</sup>

Sezilarli kelishmovchiliklarga qaramasdan, ko'pchilik odamlar Xudo hammani sevishi haqidagi fikrga qo'shiladilar.

Ehtimol siz ham shunday fikrdasiz. Siz doimo Xudo hammani sevadi, deb o'ylagan bo'lishingiz mumkin. Aslini olganda, hammani sevish bu Uning ishi hisoblanadi. Nima to'g'ri ekani haqida fikrlarimiz qanchalik bir-biriga to'g'ri kelmasin, biz jilla qursa Xudoning hech narsaga qaramasdan bizni sevishiga umid qilishimiz mumkin.

Agar siz shunday fikrda bo'lsangiz, u holda mazkur risola sizni hayron qoldirishi mumkin.

Ehtimol, siz bu risolaga boshqa nuqtai nazardan yondayotgandirsiz. Balki Xudo hammani sevadimi deya so'rayotgandirsiz, chunki U *sizni* sevishini tasavvur qila olmaysiz. Axir, siz hatto o'zingizni sevmaysiz va tanishlaringizdan birortasi sizni sevishiga ham ishonmaysiz. Agar

siz Xudo bo'lganingizda, o'zingizga o'xshagan odamni sevmagan bo'lardingiz.

Agar shunday fikrda bo'lsangiz, bu risola sizni ham ajablantiradi.

Xudo hammani sevadimi yoki yo'qmi deb so'rashdan avval yana bir savolni berishimiz kerak: Xudo hammani sevishini qanday *bilamiz*?



## Xudo hammani sevishini qanday bilamiz?

Bu savolga javob berish oson emas. Qiyin deyishimizning kamida ikkita sababi bor.

*Biz tabiatga qarash bilan Xudo hammani sevishini bila olmaymiz.*

Bizning dunyomiz lazzatlarga to'la va ularning ko'pchiligidan hatto barmoqlarimizni qimirlatmasdan turib ham lazzat olishimiz mumkin. Yerdagi sharoitlar yerda yashashimiz uchun juda qulaydek tuyuladi. Go'yoki bu dunyo bizning gullab-yashnashimizni istagan Yaratuvchi tomonidan yaratilgandek, atrofimizni puxtalik bilan yaratilgan dizayn belgilari o'rab turadi. Nafas olishimiz uchun havo, yeyishimiz uchun ozuqa, ichishimiz uchun suv, isinishimiz uchun quyosh nuri bor. Bizga dunyo taqdim qiladigan in'omlardan rohatlanishimiz uchun tanalarimiz bor. Ilm-fanning so'nggi yutuqlariga qaramasdan biz hali ham tanalarimizning nima uchun shu darajada yaxshi ishlashini tushunmaymiz.

Bundan tashqari, bizning fikrlash, tasavvur qilish, orzu qilish va yaratish kabi qobiliyatlarimiz mavjud. Biz boshqa odamlar bilan munosabat qilishga, do'stona munosabatlar o'rnatishga va birgalikda yaxshi ish qilishga qodirmiz.

Agar sevgining o'lchovi mashuqaga yog'iladigan sovg'alar sifati bo'lsa, tabiatda yeru osmonning Yaratuvchisi buyuk sevgi egasi ekani haqida ko'p dalillar bor.

Muammo shundaki, tabiat bizga aralash bo'lgan signallarni yuboradi. O'zining butun go'zalligi va yaxshiligiga qaramay, dunyomizda rad qilib bo'lmaydigan shafqatsizlik va ma'nosiz azob-uqubatlar ham bor. Bizning farovonligimiz uchun juda nozik tarzda sozlangan tabiiy muhit ba'zan bizga qarshi chiqadi.

Ushbu maqolani yozishni boshlashimdan bir hafta avval ko'pchiligimiz uxlab yotgan paytimizda shahrimizning qoq markazidan vayronkor tornado o'tdi. U uylar va korxonalarni vayron qildi, yuzlab odamlarga shikast yetkazdi va yigirmadan ortiq odamni nobud qildi.

Hozir men bu risolani yozar ekanman, dastlab Xitoydagi shaharni qamrab olgan virus butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda. Millionlab odamlar bu kasallikka chalingan. Yuz minglab odamlar o'ldi.

Shunday murakkab va yuqori darajada funksional bo'lgan tanalarimiz, ba'zan aniq sababsiz buzilishlar bilan tug'iladi. Hatto eng

yaxshi sharoitlarda ham ular oxirida buziladi va o'ladi.

Dunyoni go'zal va shu bilan birga nomukammalligini o'ylar ekanmiz, bu aniq tasodif bularning barchasi ortida nima turibdi kabi xayoldan ketmaydigan savollarni hosil qiladi. Nima uchun ba'zi bolalar zo'ravonlik va e'tiborsizlikda tug'iladi, bolani orzu qilgan oila esa bepushtlik va bola tashlashdan azob chekadi? Men buning sababini bilmayman. Bular sevgi tufayli sodir bo'ladiganga o'xshamaydi.

Dunyoni yaratgan va endi hamma ustidan hukmronlik qiluvchi Xudo bor, deb faraz qilaylik. O'sha Xudo biror kishini yaxshi ko'radimi? Buni qanday qilib aniq bilish mumkin? Qayerga qaramang va qanchalik urinmang, tabiatdan bevosita javob olmaysiz.

*Xudoning kimligi va Uning sevgisi qanday ekanligi haqidagi o'z taxminlarimizga ishona olmaymiz.*

Biz boshqa odamni tushunishga harakat qilgandek, Xudoni ham tushunishga harakat qilishimiz kerak. Agar biz boshqa odamlarni o'zimizga o'xshagan deb o'ylasak, ularni haqiqatdan kim ekanini bilib olish har doim qiyin kechadi. Xudo bilan ham shunday. U shunchaki g'oya yoki falsafiy tizim emas, balki shaxsdir. Agar biz Uni bilishni istasak, Uning qandayligini shunchaki sezgimizga tayanib taxmin qila olmaymiz.

Keling, bu fikrimni aniqroq tushuntirib beraman. Men shanba kuni maza qilib dam olish uchun nima qilish kerakligini yaxshi bilaman. Agar bahor yoki yoz fasli bo'lsa, men piyoda sayr qilishni yoki baliq ovlashni yaxshi ko'raman. Agar kuz bo'lsa, divanda o'tirib futbol tomosha qilaman. Tomosha qilayotib, shunday paytda yeyish odatga aylangan ovqatlardan (pizza, xot-dog, kartoshga salat, gamburger, va hokazolar . . .) to'ygunimcha yeyman. Lekin bo'sh vaqtlarimizni qanday o'tkazish masalasida xotanim bilan istaklarimiz turlicha. U menga o'xshamaydi. U har-xil usulda dam olishni yaxshi ko'radi. U hovlida ishlaganida, bog'ning u yer bu yerlarini chopganida, mizg'ib olganida yoki uydagi ishlarni qilganida maza qilib dam oladi. Mizg'ib olishni aytmasa, yuqoridagilarning birortasi menga dam olishdek tuyulmaydi.

Aytmoqchimanki, agar siz boshqa odamni o'zingizga o'xshagan deb o'ylasangiz, uni tushuna olmaysiz. Agar boshqa odamni tushunmoqchi bo'lsangiz, u holda siz uni tinglashingiz, unga e'tibor berishingiz va uning qanday odam ekanini kuzatishingiz kerak bo'ladi. Agar bu usul odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ish beradigan bo'lsa, bizdan mutlaqo farq qiladigan Zotni - Xudoni tushunish va Uni bilish haqida gap ketganida, bu qanchalik ko'proq ish beradi?

## *Xudo O'zining kimligini aytishi zarur*

Xudo kimni sevishini bilishimiz uchun Xudo bizga gapirishi kerak. Masihiylarning fikriga ko'ra, aynan shuni Xudo Muqaddas Kitobda amalga oshirgan. U bizga O'zining kimligini nafaqat U haqida bilishimiz uchun, balki Uni anglab yetishimiz uchun gapirgan.

Muqaddas Kitobda Xudoning sevgisi haqida aytilgan haqiqat hayratlanarli darajada go'zaldir.

- Xudoning sevgisi – bu o'ziga xos xususiyat bo'lib, u Xudoni boshqalardan ajratib turadi. “Osmonda ham, yerda ham Senga o'xshash Xudo yo'qdir. Bor yuragi bilan Sening yuzing qarshisida yuradigan O'z qullaringga Sen ahdingni va shafqatingni saqlaysan” (2-Yilnomalar 6:14).
- Xudoning sevgisi hatto ta'riflab bo'lmaydigan og'riq ichida ham ishonchlidir. “Rabbiyning shafqati tufayli bizlar yo'q bo'lib ketmadik, zero Uning rahmdilligi tugagan emas, u har tongda yangilanadi. Sening sadoqating buyukdir!” (Yermiyahning yig'isi 3:22–23).
- Xudoning sevgisi noyob va ishonchlidir, chunki bu Xudo o'chiradigan va yoqadigan tugma emas, balki Uning kimligini belgilaydigan sifatidir. “Xudo O'zi sevgidir” (1-Yuhanno 4:8).

Agar siz Xudoning sevgi ekanligiga ishonsangiz, demak, Muqaddas Kitob sizga qandaydir darajada ta'sir qilgan.

Lekin ehtiyot bo'lishimiz kerak. Biz "Xudoning O'zi sevgidir" degan iborani eshitib o'zimizning sevgi haqidagi fikrlarimizga suyanmasligimiz kerak. Agar Xudoning O'zi sevgi ekanini o'rgatadigan yagona manbaimiz Muqaddas Kitob bo'lsa, u holda biz Muqaddas Kitob Xudoning O'zi sevgi deganda *nimani anglatishini* to'liq tariflashiga ruxsat berishimiz kerak. Bizning tushunchalarimizga zid kelgan taqdirda ham Muqaddas Kitob bizga Xudoning sevgisi haqida o'rgatishiga yo'l qo'yib berishimiz kerak.

Xullas, Muqaddas Kitobda Xudo kimni sevishi haqida nima deyilgan?

## Xudo hammani sevadimi?

Muqaddas Kitobda Xudo O'zini bir necha bandlardan iborat ro'yxat orqali emas, balki Ibtidodan Vahiygacha bo'lgan bir-biriga bog'liq jozibali hikoya orqali ko'rsatadi. Boshidan to oxirigacha bu hikoya sevgi hikoyasidir. Xudo kimni sevishini tushunish uchun biz ushbu hikoyaning asosiy mavzularini bosqichma-bosqich kuzatib borishimiz kerak.

Ruxsat bersangiz, yuqoridagi savolimizga javob topishga kirishishdan avval risolaning davomida bizni nimalar kutayotgani haqida qisqacha ma'lumot bersam. Muqaddas Kitobda Xudoning sevgisi haqidagi mavzu murakkabdir. U bizga Xudoning hammani yaxshi ko'rishini tasdiqlaydi. Lekin Xudo hammani birday sevmaydi. Men ushbu risolaning davomida tushuntirmoqchi bo'lgan javob shunday: **Xudo hammani yaxshi ko'radi, lekin U hammani birday sevmaydi.**

Buni tushunish uchun Muqaddas Kitob markaziy hikoyasining beshta bosqichini ko'rib chiqishimiz kerak.

## **1. XUDO XUDONI SEVADI**

Yuhanno bizga Xudo sevgidir, deydi (1-Yuhanno 4:8). Bu Xudoda sevgi bor degani emas. Bu Xudoning ba'zi joylarda sevgi ko'rsatadi degani ham emas. Aksincha, Xudo O'z mohiyatiga ko'ra sevgidir.

Bu Muqaddas Kitobning markazidagi sevgi hikoyasi dunyo yaratilishidan avval boshlanganini anglatadi.

“Boshida Xudo . . .” (Ibtido 1:1). Bu Muqaddas Kitobdagi dastlabki so'zlardir. Ular juda katta ahamiyatga ega. Azalda Xudo bor edi. O'sha, azaldan, allaqachon bor bo'lgan Xudo sevgidir.

Yuhanning oddiy va tanish gapi zamirida aql-bovar qilmaydigan haqiqat bor: Dunyo paydo bo'lishidan avval, quyosh, oy va yulduzlardan avval, okeanlar, tog'lar, daraxtlar, baliqlar, qushlar, hayvonlar va biz insonlardan oldin Xudo sevgi Xudosi bo'lgan. Bu Xudo mohiyatining bir qismi bo'lib, U hech qachon kimnidir sevmagan vaqti bo'lmagan.

Lekin U dunyoni yaratishdan avval kimni sevgan?

Xudo sevgisi haqida bilish kerak bo'lgan birinchi narsa – bu Xudo boshqa birortani sevishidan oldin yoki sevish uchun kimdir paydo bo'lishidan avval Xudo O'zini sevganidir.

Ichimdagi bir sezgi bu fikrdan qaytishim kerakligini aytadi. Bu fikr xunuk eshitiladi. Bu bizning sha'nimizga, ayniqsa, Xudoning sha'niga



nomunosibdek tuyuladi. Lekin aslida bu bir necha sabablarga ko'ra to'g'ri.

Birinchidan, Xudo men va siz kabi emas. U umuman boshqa mavjudot. Uning O'ziga bo'lgan sevgisi meniki kabi tor va ichki emas. Muqaddas Kitob Xudoni uch shaxsda – Ota, O'g'il va Muqaddas Ruhda bir ekanini o'rgatadi. Demak, U O'zini sevganida, Uning sevgisi “tashqarisida” bir shaxsdan ikkinchi shaxsga butun abadiylik davomida baravar tarzda harakat qiladi. Xudoning O'zini sevishi xuddi otaning o'z o'g'lini sevishiga va bunga javoban o'g'ilning otani sevishiga o'xshaydi va bu abadiy davom etadi. Iso Otaga shunday deb ibodat qilgan: “Sen Meni dunyo yaratilishidan oldin sevganing uchun . . .” (Yuhanno 17:24).

Albatta, agar men o'zimni hammadan ko'proq sevaman desam, bu qo'rslik bo'lardi. Biz o'zimizni sevganimizda, boshqalardan uzoqlashamiz. Biz o'z manfaatlarimizni boshqalarnikidan yuqori qo'yamiz. Men va siz uchun o'zimizga bo'lgan sevgi – bu xudbinlik, uzoqlashish va halokatdir. Lekin Xudo O'zini sevganida, bunday bo'lmaydi. Uning O'ziga bo'lgan sevgisi shaxslararo bo'lib, uchbirlik ichida shaxsdan shaxsga o'tadi. Bu sevgi fidoyi bo'lib, unda xudbinlik yo'q.

Ikkinchidan, Xudoning Xudoga bo'lgan sevgisi muvofiq keladi. U yuksak darajada seviklidir. Biz boshdan kechiradigan go'zallik, yaxshilik, solihlik va shodlikning har qanday alomati Undan keladi.

Har bir alomat *Uning* go'zalligining, kimligining va har doim Kim bo'lganligining xira aksidir. Undan boshqa ko'proq quvonchli, hayot bahsh etuvchi, aziz Zot yo'q. Ota O'g'ilga qaraganda, U bu go'zallikning in'ikosini ko'rib xursand bo'ladi. O'g'il ham O'z otasiga qaraganda xursand bo'ladi. Bu zavq ta'riflab bo'lmaydigan va beto'xtov sevgi bo'lib, bu sevgi ular o'rtasida abadiy aylanishda davom etadi. Xudo O'zini sevishi kerakligi haqiqatdir. O'g'lim men yoqtiradigan tuflimdan ko'ra qadrliroq bo'lganidek, Xudo hammadan yoki har qanday narsadan ko'ra ko'proq muhabbatga loyiqdir.

Yana bir sababga ko'ra, Xudoning O'ziga bo'lgan sevgisi egosentrik xudbinlik muammosi emas. Bu esa Muqaddas Kitobdagi sevgi hikoyasi bilan meni ikkinchi bosqichimizga olib keladi.

## **2. XUDO HAMMANI SEVADI**

Xudoning Xudoga bo'lgan sevgisi Xudoning menga va sizga bo'lgan sevgisini bevosita to'yintiradi.

Seviladigan dunyoning paydo bo'lishidan avval Xudo allaqachon sevgan va allaqachon sevilgan ekanini yodingizda tuting. U yolg'iz bo'lmagan. U dunyoni va insonlarni O'zidagi bo'shliqni to'ldirish uchun yaratmagan. U abadiy va mukammal baxtli, mamnun va qudratli bo'lgan.

Endi siz insonning Xudoga kerakli bo'lishi yomon emas, deb o'ylayotgandirsiz. Agar kerakli

bo'lsangiz, bunga chidasa bo'ladi, ammo kerak bo'lmaslik hissi biroz alam qiladi. Agar men Xudoga zarur bo'lmasam, bu mening U uchun ahamiyatsizligimni anglatadimi?

Yo'q, Xudo O'zidagi bo'shliqni to'ldirish uchun insonni yaratmagani hayotimiz nima uchun shunchalik *muhim* ekanligining kaliti hisoblanadi.

Aytaylik, Xudo sizsiz yashay olmagani sababli sizni yaratdi. Bu sizni tovarga aylantiradi. Bunday holatda U sizni xuddi suyanish mumkin bo'lgan hassadek ishlatadi. Bu shunchaki biznes, oddiy bitim bo'ladi.

Ammo bu dunyo Xudoga baxtli bo'lishi uchun yoki sevgi nima ekanligini bilishi uchun zarur bo'lmagan. Shuning uchun Uning bizni yaratishidan maqsadi xudbinlik emas, balki O'zini fido qilishdir. U bizdan biror narsani tortib olish uchun bizni yaratmagan. U koinotdagi eng hayotbahsh, eng quvonchli hadyani – O'zini baham ko'rishimiz uchun bizni yaratgan. U majbur bo'lgani uchun bizni yaratmagan. U buni istagani uchun bizni yaratgan. Boshqacha qilib aytganda, sevgi bo'lgan Xudo bizni sevgi uchun yaratgan. Sizning hayotingiz muhim, chunki Xudo sizni hayot uchun tanlagan.

Ibtido kitobining 1-bobi Xudo ijodining mukammalligi va Uning yaratishdan qanchalik zavqlangani haqidagi oyat bilan boshlanadi. Muallif birin-ketin Xudo yaratgan narsalarni toifalariga

ko'ra sanab o'tadi. Har bir ish kundan so'ng Xudo "bularning yaxshi ekanini ko'rdi" degan bir xil so'zlarni eshitamiz. Bu yaxshi edi. Bu yaxshi edi. Kundan kunga yaxshi bo'layotgan edi.

So'ng, bu yaratilishning cho'qqisida Xudoning eng yaxshi ishi uchun mo'ljallagan rejasiga duch kelamiz. Hamma narsa shu uchun yaratiladi.

Xudo yana: "O'z suratimizga ko'ra, o'zimizga o'xshash qilib odamni yarataylik. Ular dengizdagi baliqlar, osmondagi qushlar, chorvalar, butun yer ustidan va yerda sudralib yuradigan barcha sudraluvchilar ustidan hukmronlik qilsinlar", – dedi.

Shunday qilib, Xudo odamni O'z suratida, uni Xudoning suratida yaratdi. Ularni erkak va ayol qilib yaratdi. (Ibtido 1:26–27)

Xudo o'z suratiday qilib yaratgan erkak va ayolga qaraganda, buning *ajoyib ekanini* ko'rdi. Bu Uning sevgi izhoridir. Xudoning bu sevgi izhori o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi har bir insonga tegishlidir.

Sevgi doim nimadandir zavqlanishni anglatadi. Men "moviy o't" musiqasini yoki Uilyam Folknerning romanlarini yoki mazali dudlangan

go'shtning ta'mini yaxshi ko'raman deganimda, men aynan shuni nazarda tutaman. Bu narsalardagi nimadir menga katta zavq bag'ishlaydi. Ular meni xursand qiladi. Men ularni yaxshi ko'raman.

Ibtido 1-bobiga ko'ra, Xudoning nazarida Uning suratiday qilib yaratilgan har bir inson *juda ajoyibdir*. Inson tasodif, xato, sayyoramizdagi kasallik emas, balki noyob zavq beradigan obyektidir.

Bu sevgi tasdig'idir. Xudo hammani xuddi men yozda pishiriladigan limonli pirog bo'lagini yoki bolalarimni qitiqlaganda, ularning qiqirlagan ovozini yoki tongda turib rafiqamning yuzini tomosha qilishni yaxshi ko'rganimdek sevadi. Bu narsalar juda ajoyibdir. Xudo har bir insonning hayotidan ana shunday zavq oladi. Aynan Uning sevgisi bizni inson qiladi.

Biz odamlar o'rtasidagi sevgi haqida gapirganimizda, sevgining yana bir jihati paydo bo'ladi. Sevgi o'zingizni boshqalarga ma'qul tarzda taqdim etishdir. Men uchun sizni sevaman deyish oson. Lekin agar siz kulfat ichida bo'lsangizu, men siz uchun hech narsa qilmasam, bu sevgi bo'ladimi? Sizda qandaydir men yordam bera oladigan muhtojlik bo'lsayu, lekin yordam bermasam, bu sevgi bo'ladimi? Shunday paytda, siz mening sevgimga shubha qilasiz va to'g'ri qilasiz. Amaliy harakatsiz sevgi – bu shunchaki hissiyot. Haqiqiy sevgi esa amalda ko'rinadi.

Mana shuning uchun ham, Xudo O'z suratiday qilib yaratgan hamma insonni sevadi. Shu sevgi sabab U O'z yaratganlariga yaxshi hadyalarni beradi.

Sanolar 135-bob Xudoning sodiq sevgisini kuylaydigan madhiyadir. Har bir satrda Xudo qilgan yaxshi ishlarga misollar keltiriladi va "Uning shafqati abadiydir" degan jumla birga keladi. Xudoning yaratishdan tortib, Isroilni Misrdan qutqarishi va O'z xalqiga yer berishigacha bo'lgan ko'plab misollar bor. Lekin oxirgi misol, Xudoning Isroilga bo'lgan sevgisi ko'lamidan tashqariga chiqadi va Uning hammaga bo'lgan sevgisini ta'kidlaydi: Xudo "har bir vujudga ozuqa beradi, chunki Uning shafqati abadiydir" (Sanolar 135:25).

Iso O'zining tog'dagi va'zida shunga o'xshash mavzuni gapirgan. U olomonga ma'lum sabablarga ko'ra, sevish oson bo'lgan do'stlarni yoki qarindoshlarni sevishning o'zi yetarli emasligini aytadi. Ular o'z dushmanlarini ham sevishlari kerak. Ular hammani yaxshi ko'rishlari kerak. Iso hammani sevishga undadi. Sababi – Uni tinglayotganlarning sevgisi ham xuddi Xudoning sevgisi kabi bo'lishi kerak edi. "Ammo Men sizlarga aytaman, dushmanlaringizni sevinglar, sizlarni la'natlayotganlarni duo qilinglar, sizlardan nafratlanayotganlarga yaxshilik qilinglar, sizlarni haqoratlab quvg'in

qilayotganlar uchun ibodat qilinglar. Shunda sizlar Osmondagi Otangizning farzandlari bo'lasizlar. Chunki U quyoshni yovuzlar va yaxshilar ustidan chiqaradi, U yomg'irni haq odamlar va nohaq odamlarga yuboradi" (Matto 5:44-45). Xudo quyosh va yomg'irdan hammani, yaxshi va yomonni, solih va fosiqni bahramand qiladi. Chunki U O'z suratiday qilib yaratilgan hamma insonni sevadi.

Biz ko'rib turgan dunyo va undagi har bir mavjudot Xudo bizni sevishidan darak beradi. Biroq, biz hozirgina ko'rib chiqqan ajoyib yaratilish hikoyasidan son'g yurakni ezadigan voqealar sodir bo'ladi.

### **3. HECH KIM XUDONI SEVMAYDI**

Ibtidoning dastlabki boblari nafaqat yaratilishni, balki munosabatlarning boshlanishini ham tasvirlaydi. Bu bizga Xudo bilan Uning suratiday qilib yaratilgan odamlar o'rtasidagi sevgi va ishonch munosabatlariga nazar solishga imkon beradi. Bu bizga ushbu sevgi va ishonch munosabatlari to'siqlar bilan himoyalanganligini ko'rsatadi. Odam Ato va Momo Havoga hayot bergan o'sha sevgi ayni paytda ularga itoat qilish qoidalarini ham berdi. Bu qoidalar ularni himoya qilishga va Xudo ularni joylashtirgan bog'da gullab-yashnashiga mo'ljallangan edi.

Bizning ajoyib va go'zal dunyomizda hamma narsa buzilgan va buning sababi Xudoning sevgisi

va qudratiga bo'lgan ishonchning yo'q qilinganidir.

Ibtido kitobining 3-bobi bizga Odam Ato va Momo Havo Xudoning qoidalarini qanday qilib rad qilgani haqida gapirib beradi. Ular Xudo bergan qoidalar o'zlariga mos kelmasligiga ishonch hosil qilganlaridan so'nggina Unga itoatsizlik qilishga qaror qilishgan. Boshqacha qilib aytganda, ular Xudoning sevgisini shubha ostiga olganlar. So'ng ishonch o'rnini raqobat egallagan. Ular o'z manfaatlari bilan Uning manfaati bir-biriga mos kelmaydi deb o'ylab, o'zlari uchun foydali ishni qilishga qaror qilganlar.

Hech e'tibor qilganmisiz, har safar gunoh qilganimizda xuddi shunday yo'l tutamiz. Bizning manfaatimiz bilan Uning manfaati bir-biriga mos kelmaydi deb o'ylab, o'zimiz uchun foydali ishni qilishga qaror qilganimizda, gunoh qilamiz.

Munosabatlardagi uzilish shu bilan tugamaydi. Ibtido kitobida hamda o'z tajribamizda guvohi bo'lganimizdek, Xudo bilan munosabatning buzilishi insonlarga ham o'tadi. Aybni boshqaga yuklash, hasad, nolish va zo'ravonlik hamda zulmning hamma shakllarini ko'ramiz (Ibtido 3-4).

Sanolar 13-sano biz insonlarning bizni sevuvchi Yaratuvchimizga qanday munosabatda bo'lganimiz haqidagi butun Muqaddas Kitobda keltirilgan ma'lumotni umumlashtiradi.



“Mulohaza qiluvchi, Xudoni izlovchi bormi?” – deb, ko’rish uchun Rabbiiy osmondan inson o’g’illariga qaradi.

Hamma yo’ldan og’gan,  
hammalari birdek yaroqsiz bo’ldilar.

Yaxshilik qiluvchi yo’q,  
birorta ham yo’q.

(2–3-oyatlar)

Agar bizni Xudoga bo’lgan sevgi yo’naltirmasa, o’z yo’llarimizga og’ib ketamiz. Biz dunyoni ustunlik uchun kurashadigan (ba’zan yengilib, ba’zan yengadigan) alohida, avtonom kichik xudolar bilan to’ldiramiz. Barcha yomonlik tashqariga chiqadi.

#### **4. XUDO GUNOHKORLARNI SEVADI**

Xudo bizni sevgi uchun yaratgan. Biz Uning sevgisini rad qildik. Bu sevgi hikoyasining xotimasi bo’lishi mumkin edi. Qaysidir ma’noda bu xotima bo’lishi kerak edi, deb aytishimiz mumkin. Biz uchun, ehtimol, shunday ham bo’lishi mumkin edi. Lekin, aslida, Xudoning O’zini rad qilinishiga javobi, Uning bizga bo’lgan sevgisi qanchalik chuqur ekanini ko’rsatadi. Aks holda biz buni tasavvur qila olmasdik.

Yuhanno 3:16 Injildagi Xudoning sevgisi haqidagi eng mashhur oyat:

Chunki Xudo dunyoni shunchalik sevdiki, O'zining Yagona O'g'lini berdi, toki Unga ishongan har bir kishi halok bo'lmasin, balki abadiy hayotga ega bo'lsin.

Men “dunyo” so'zini o'qiganimda, xayolimga keladigan birinchi fikr – bu ko'lam bo'ladi. Xudo butun dunyodagi hammani yaxshi ko'radi. Albatta, bu biz yuqorida gaplashganimizdek to'g'ri. Lekin Yuhanno “dunyo” so'zini ishlatganda, buni nazarda tutmaydi.

Uning uchun “dunyo” odatda miqdorga emas, sifatga ishoradir. Yoki bir Yangi Ahd bo'yicha professor aytganidek: “Yuhanno kitobida *dunyo* kattalikni emas, balki yomonlikni anglatadi. Yuhanno lug'atida *dunyo* birinchi navbatda Xudoga qasddan va gunohkorona isyon qiluvchi axloqiy tartibdir.”<sup>2</sup>

Biz Yuhanning so'zlari ma'nosini tushunganimizda, bundan hayratlanamiz. Xudo hammani O'z suratida qadr-qimmatli qilib yaratgani uchungina sevmaydi. Xudo hammani alohida shaxs sifatida sevadi. Ular Xudoning sevuvchi hokimiyatiga qarshi isyon qilsalar ham, Uning yo'lidan emas, balki o'zlarining yo'llaridan yurib o'zlarini xudodek ko'rsalar ham sevadi.

Yuhanno o'z maktublarida xuddi shu fikrni aytadi. “Xudo sevgidir” degani nima (1-Yuhanno 4:8)? Yuhanno keyingi oyatlarda nima deyishiga e'tibor bering:

Xudoning bizga bo'lgan sevgisi shu orqali ayon bo'ldiki, U yagona O'g'lini dunyoga yubordi, toki U tufayli biz hayotga ega bo'laylik. Sevgi shundaki, biz Xudoni sevmagan edik, lekin U bizni sevdi va O'z O'g'lini gunohlarimiz uchun rahm-shafqat keltirish qurbonligi qilib yubordi. (1-Yuhanno 4:9-10)

Yuhanno bizga nimani ko'rsatayotganini ko'rayapsizmi? Xudoning dunyoga bo'lgan sevgisi birinchi o'rinda turadi. Hali hech kim so'ramagan paytda va hali hech kim minnatdor bo'lmagan paytda U bizni sevdi. U bizni sevdi va shuning uchun O'z O'g'lini gunohkorlarga najot berish uchun qurbonlik sifatida yuborgan. Va "sevgi" so'zi odatda kattalikka emas, balki yomonlikka qaratilgan bo'lsada, Yuhanno bu kechirim taklifi hamma uchun mo'ljallanganini va uni "butun dunyoning gunohlari"ni qoplash uchun yetarli darajada kuchli ekanini aytadi (1-Yuhanno 2:2).

Xudo mana shu sevgisi orqali O'zi bilan munosabat qilishni istamaganlarni qutqarish va buzilgan sevgi munosabatlarini tiklash uchun O'z O'g'lini yuborgan.

Bu najot va qayta tiklash taklifi hech qanday istisnosiz amalga oshirilgan. "Chunki "Rabbiyning nomini chaqiradigan har bir kishi najot topadi"", deb yozilgan-ku (Rimliklar 10:13).

Lekin bu yerda shuni aytish kerakki, Xudo hammani sevsa ham, U hammani birday sevmaydi. Faqat “Unga ishongan har bir kishi” (Xudoning O’g’li, Isoga) “halok bo’lmasin, balki abadiy hayotga ega bo’lsin” (Yuhanno 3:16). Xudoning Isoga ishonganlarga mehri boshqacha. Bu O’zining qutqarilgan xalqiga bo’lgan mehrdir. Muqaddas Kitobda bu sevgining ichki va tashqi tomonlari borligi aytiladi.

## **5. XUDO O’Z XALQINI SEVADI**

Xudoning o’ziga xos tarzda Unga tegishli bo’lgan va alohida sevikli bo’lgan xalqini ajratib ko’rsatishdan iborat niyatini tan olmasdan turib, Muqaddas Kitobning keng qamrovli hikoyasini tushunish imkonsiz.

Ibtido kitobida dunyo gunoh va xudbinlik sababli buzilgandan so’ng Xudo bir kishini, Ibromni (keyinchalik Ibrohim deb nomlangan) da’vat qiladi va uni barakalashga va uning zurriyotidan buyuk xalq yaratishga va’da beradi. Xudo unga shunday deydi: “Men sendan buyuk xalq yarataman. Seni duo qilib, nomingni ulug’layman. Sen duo-barakali bo’lasan. Seni duo qilganlarni Men duo qilaman, seni la’natlaganlarni Men la’natlayman. Yer yuzidagi barcha qabilalar senda baraka topadilar” (Ibtido 12:2–3).

Ibrohimning zurriyoti Isroil xalqiga aylanishi bilan Xudo yer yuzidagi barcha xalqlar orasida

ularga bo'lgan o'ziga xos sevgisini qayta va qayta tasdiqlagan. Xudo Isroilga O'z qonunini berganda, ularga quyidagini eslatgan: “Mana, samo va samolarning samosi, yer va undagi hamma narsa Rabbiy Xudoyingizga tegishlidir. Ammo Rabbiy faqat sizning otalaringizni qabul qildi, ularni sevdi va bugun ko'rib turganingizdek, sizlarni, ularning urug'ini barcha xalqlar ichidan tanlab oldi” (Qonunning takrorlanishi 10:14–15). Hamma narsa va hamma Xudoga tegishlidir, lekin U barcha xalqlar orasidan faqat bu xalqqa muhabbat qo'ygan.

Xudoning Isroil bilan maxsus munosabati Uning jamoat bilan munosabatiga misol bo'ladi. Yangi Ahd bu munosabatlarni xuddi shu til bilan tasvirlab, bu sevgining o'ziga xos va noyob munosabati ekanligini bizga ko'rsatadi.

Pavlus o'zining Efesliklarga maktubini dunyo yaratilishidan avval Xudo bu yangi jamoaga O'zining muhabbatini ko'rsatgani uchun ulug'lash bilan boshlaydi:

Rabbimiz Iso Masihning Otasi – Xudo muborak bo'lsin! U bizga samodagi barcha ruhiy barakalarni Masihda ato etgan. O'zining huzurida muqaddas va benuqson bo'lishimiz uchun Xudo dunyo yaratilishidan avval bizni Masihda tanlab, O'z irodasining iltifoti bo'yicha bizni Iso Masih orqali sevgi

bilan O'ziga farzand qilib olishni azaldan tayinladi. O'z inoyati shuhratining maqtovi uchun U sevikli O'g'lida bizga inoyat ko'rsatdi (Efesliklar 1:3–6).

Maktubining oxirida Pavlus Masihning jamoatga bo'lgan sevgisini urning o'z xotiniga bo'lgan sevgisiga qiyoslaydi: “Erlar, xuddi Masih Jamoatni sevib, u uchun O'zini fido qilganidek, o'z xotinlaringizni sevinglar.”

Nikoh misolidagi bu o'xshatish Xudoning O'z xalqiga bo'lgan alohida sevgisini tushunishga katta yordam beradi. Bu mening xotinimga bo'lgan muhabbatimga o'xshab ketadi.

Albatta, men sevadigan ayollar anchagina. Mening onam va uchta opam bor. Yaqin ayol do'stlarim bor. Jamoatimizga tegishli bo'lgan Masihdagi ko'p opa va singillarim bor. Men ularning hammasini yaxshi ko'raman. Lekin o'z xotinimga nisbatan muhabbatim o'zgacha. Mening unga bo'lgan sevgim boshqa ayollarga bo'lgan sevgimdan ajralib turadi. Xudo O'z xalqini ana shunday sevgi bilan sevadi.

Buning sababi nimada? Xudo O'z xalqining nimasini sevadi? Bu juda muhim savol. Agar bu o'ziga xos sevgining ichki va tashqi tomoni bo'lsa, ya'ni ba'zilarni U shunday tarzda sevsa, ba'zilarni esa bu tarzda sevmasa, u holda bu sevgining ichki tomoniga qanday erishish mumkin bo'ladi? Mana

shu joyda Xudoning sevgisi haqidagi Muqaddas Kalom xabari juda hayratlanarlidir.

*Xudo O'z xalqini boshqacha bo'lgani uchun sevmaydi*

Xudo O'zining xalqida boshqa hech bir xalqda bo'lmagan nimadir borligi uchun alohida bir sevgi bilan sevadi, deb o'ylash tabiiydir.

Lekin Qonunning takrorlanishi kitobida Xudo nima uchun Isroilni yer yuzidagi boshqa xalqlar orasidan "O'z xazinasini" qilganini qanday tushuntirganiga e'tibor bering:

Rabbiy sizlarni barcha xalqlardan ko'p sonli xalq bo'lganingiz uchun tanlagan va qabul qilgan *emas*, zero sizlar barcha xalqlardan kam sonlisizlar, balki Rabbiy *sizlarni sevishi uchun* hamda U sizlarning otalaringizga ichgan qasamini bajarishi uchun Rabbiy sizlarni O'zining kuchli qo'li bilan olib chiqdi va sizlarni Misr podshohi fir'avning qo'lidan, qullik uyidan ozod qildi (Qonunning takrorlanishi 7:7–8).

Pavlus Xudoning jamoatga bo'lgan sevgisi haqida shunga o'xshash bo'lgan fikrni aytadi. U bir-biridan ustun bo'lish vasvasiga tushgan Korinfdagi yangi jamoatga maktub yo'llaganida, ularga quyidagini eslatadi: "sizlarning orangizda insoniy

nuqtai nazardan dono bo'lganlar ko'p emas, kuchli bo'lganlar ko'p emas, aslzoda bo'lganlar ham ko'p emas" (1-Korinfliklar 1:26). Buning tarjimasi: sizlar g'oliblikni qo'lga kiritmagansizlar. Siz ko'rkam sportchilarning va go'zal qirolichalarning mashhur olomoni emas edingiz.

Yo'q. Xudo O'z xalqiga mehr qo'yganida, bu Uning uchun eng maqbul tanlov bo'lgani uchun shunday qilmagan. Buni munosabatlar boshlanishidan avval Xudo "juftlar tanishuv sahifasi"da O'zi uchun mukammal juftni topmaguncha nomzodlarni ko'rib chiqishiga o'xshatib bo'lmaydi. Hatto bunga yaqin ham emas. "Rabbiy sizlarni sevishi uchun . . ." U ularni sevgani uchun sevadi. U shu sevgi bilan Isroilni sevgan va jamoatni ham sevadi.

*Xudo O'z xalqini yaxshi bo'lgani uchun sevmaydi.*

Xudo O'z xalqining qonunlarga amal qilishi yoki qilmasligiga qarab tanlaydi deb o'ylash yanada tabiiyroq tuyuladi. Bunday afzallik boshqa dinlarga xos bo'lgan xususiyatdir. O'z xatti-harakati bilan erishganlar, shu mavqeda turishga sazovor bo'lganlar "bag'ishlangan" sevikli kishilar hisoblanadilar. Bu dinlarga ko'ra, siz faqat qilgan to'lovingizga yarasha mukofot olasiz.

Lekin Xudo O'z xalqiga bunday munosabat qilmaydi.



Albatta, Muqaddas Kitobda haqlik deb ataluvchi itoatkorlik Xudo uchun muhimdir. Agar u yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farqni ko'ra olmaganda edi, U Xudo bo'lolmasdi, U sajda va ishonishga loyiq bo'lmasdi. Xudo yaxshi ko'radigan haqlik – bu hech nimadan gumon qilmaydiganlarni tuzoqqa tushiradigan yoki zaiflarni elakdan o'tkazish uchun o'zboshimchalik bilan yaratilgan qoidalar emas. U sevadigan haqlik Uning haqiqatga bo'lgan mukammal sadoqatini aks ettiradi. Xudoning haqligi go'zaldir. U qadrlidir. Ich-ichimizdan istagimiz mukammal bo'lmasada, chin dildan haqlikni sevadigan Xudoni istaymiz, chunki biz adolatsizlikka qarshi bo'lgan Xudoni istaymiz. Xudo esa haqiqatan ham haqlikni yaxshi ko'radi.

Lekin Xudoning xalqida doim haqlik yetishmaydi, shunga qaramay U O'z xalqini sevadi.

Masalan, Isroil tarixini olaylik. Bu hikoyada Xudoning Isroilga bo'lgan cheksiz sevgisi kabi izchil bo'lgan yagona doimiy mavzu – bu Isroilning unutulchanligi, noshukurligi va o'z qo'shnilarining xudolarini ma'qul ko'rishi hisoblanadi.

Xudo O'z xalqini tavsiflash uchun Hosheya payg'ambardan foydalanadi. Bu men bilgan eng yaxshi misoldir. Xudoning O'zi Isroilni sevish nima ekanligini ko'rsatish uchun ushbu saboq beradigan obyektini yaratadi. U Hosheyaga Gomera ismli fohishaga uylanishni, uni sevishni va uning o'tmishiga qaramasdan u bilan oila qurishni

buyurgan. Hosheya bu amrni bajargan. Lekin ularning nikohi hikoyaning baxtli yakuni emas.

Gomera o'z nikohini buzib fohishalikka qaytadi. U Hosheyaning xotini bo'lishdan ko'ra fohishalik hayotini afzal ko'radi. Xudo Isroilning Unga bo'lgan munosabatini shunday tasvirlaydi. Ana shunday xalqni U O'z xalqi sifatida sevadi.

Xudoning yangi ahd bilan tuzilgan xalqi – jamoati ham Xudo birinchi marta sevgan Isroilga qaraganda solihroq emas edi. Bu jamoat ham Isroil xalqidan farq qilmaydigan odamlardan tashkil topgan. Pavlus Xudoning sevgisiga ega bo'lishdan avval har bir masihiyning hayotini qanday tasvirlaganiga e'tibor bering:

Chunki bir vaqtlar, biz o'zimiz ham fahmsiz, itoatsiz, adashgan odamlar bo'lib, turli hislaru kayf-safolarning qullari edik; yovuzlik va hasadgo'ylikda yashaydigan jirkanch odamlar bo'lib, bir-birimizdan nafratlanar edik. Ammo Najotkorimiz Xudoning ezguligi va insonparvarligi zohir bo'lganida, Xudo bizga qilgan haq ishlarimiz tufayli emas, balki O'zining rahm-shafqati tufayli, qayta tu'gilish hammomi va Muqaddas Ruh tomonidan yangilanish orqali najot berdi. (Titus 3:3–5)

Ular ham Gomeradek ehtiros quli edilar. Isroildek itoatsiz edilar. Xudoning marhamatiga

sazovor bo'lish uchun poklanish harakati, "haqlik yo'lida qilingan ishlar" yo'q edi. Hayotimizda o'zimiz yaratgan tartibsizliklar paytida, Xudoning O'zi birinchi bo'lib sevgisi bilan yaxshilik qildi.

*Xudo O'z xalqini O'z O'g'li orqali sevadi*

Xudoning O'z xalqiga bo'lgan alohida sevgisining ichki va tashqi tomoni o'rtasidagi farq Isoga borib taqaladi. Bu siz g'olib keladigan musobaqa emas. Bu siz erishadigan mavqe ham emas. Bu siz qabul qilib oladigan hadyadir. Bu hadya faqat Iso sizga ochadigan darvozadan kirganingizda beriladi.

Men yo'l, haqiqat va hayotdirman. Hech kim Mensiz Otaning oldiga bora olmaydi (Yuhanno 14:6).

Xudo *haqlikni chetga surib qo'yish* uchun emas, balki *O'z xalqini haq qilishga* qaror qilgani uchun haq bo'lmagan odamlarga O'zining alohida sevgisini ko'rsatadi. Bu haqida bir eski madhiyada ajoyib tarzda aytilgan: "sevgisi bo'lmaganlarga sevgi ko'rsatish ularning sevimli bo'lishi uchun qilinadi."<sup>3</sup>

Hosheya va Gomera voqeasi ularning nikohi bilan yakun topmaydi. Bu hikoya zino va tark etish bilan ham yakunlanmaydi. U tasavvur qilib bo'lmaydigan rahm-shafqat bilan tugaydi. Xudo Hosheyaga, bu qalbi singan va xiyonatga uchragan

erga o'zining vafosiz xotini ortidan borishni va xotini tanlagan qullikdan qutqarishni buyuradi. Gomera do'stlik va g'amxo'rlik o'rniga qullikni tanlagan edi.

Bir cho'pon Hosheya hikoyasi o'zida Masih hikoyasini ko'rsatadi, deb tasvirlaydi.<sup>4</sup>

Pavlus o'zining Efesliklarga maktubida masihiylarni "Bizning hammamiz ham bir vaqtlar ularning orasida o'z tanamizning hirslarida yashab, tana izmining xohishlari va fikrlarini bajarib, boshqalar singari tabiatan g'azab farzandlari edik", deb tasvirlaganda, u bu hikoyani yodida tutganini tasavvur qilish qiyin emas (Efesliklar 2:3). Biz bir paytlar, bizning har birimiz Gomera edik. "Ammo rahm-shafqatga boy bo'lgan Xudo bizni O'zining buyuk sevgisi bilan sevdi va jinoyatlarimiz tufayli o'lik bo'lsak-da, bizni Masih bilan birga jonlantirdi, (sizlar inoyat bilan najot topgansizlar)" (Efesliklar 2:4-5).

Keyinroq Pavlus xuddi Hosheyani o'z qarshisida ko'rgandek, butun bu jarayonni nikohga qiyoslaydi. U erlarning "xuddi Masih Jamoatni sevib, u uchun O'zini fido qilganidek", o'z xotinlarini yaxshi ko'rishlari kerakligini aytadi (Efesliklar 5:25). Masih O'zini jamoat uchun fido qilishining sababi: "Jamoatni muqaddaslash uchun hammom suvi bilan yuvib, So'z orqali tozaladi, toki uni muqaddas va benuqson holatda O'ziga dog'siz, nuqsonsiz yoki shunga o'xshash biror narsasiz, shuhratli Jamoat qilib taqdim etsin" (Efesliklar 5:26-27).

Muqaddaslik va benuqsonlik. Masih O'z kelinidan shuni istaydi. Haqlik muhim. Lekin Xudo xalqining haqligi, Xudo yaxshi ko'radigan, U ko'rib xursand bo'ladigan haqlik, ularga Uning O'z qo'li bilan beriladigan hadya sifatida keladi. Bu hadya – Xudo O'z O'g'lining qoni orqali ularni sotib olganidir.

Hosheya o'zining sadoqatsiz xotini gunohini yuvish uchun to'lov qilganidek, Xudo Masihda o'z xalqining gunohi uchun to'lov to'ladi va uni haq qildi.

Pavlus Isoni jamoat uchun “O'zini fido qildi” deganda, ana shuni nazarda tutadi (Efesliklar 5:25).

Petrus: “Masih ham bizni Xudoga olib kelish uchun bir marta bizning gunohlarimiz uchun azob chekdi. O'zi Haq bo'la turib, nohaqlar uchun qurbon bo'ldi”, deganda ana shuni nazarda tutadi (1-Petrus 3:18).

Iso “ko'plarni qayta sotib olib, O'zining jonini berish uchun kelgan” deb aytganda, ana shuni nazarda tutgan (Mark 10:45).

Bu fikr 2-Korinfliklar 5:21-oyatida juda yaxshi umumlashtirilgan: “Zero Xudo gunohni bilmagan Masihni biz uchun gunoh qurbonligi qildi, toki biz Masihda Xudoning haqligi bo'laylik.”

Masihlilar Xudoning sevgisini ko'pincha shartsiz sevgi sifatida ta'riflaydilar. Bu haqiqat. Xudoning xalqi Unga qarshi gunoh qilsa ham Xudo ularni sevadi. Xudo O'z xalqini Uning sevgisiga

javoban sevgi qaytarishidan oldin, Uning sevgisiga loyiq biror bir ish qilishidan ham oldin sevadi. Xudoga shukurki, buning hammasi haqiqat.

Lekin Uning sevgisi shu bilan cheklanib qolmaydi. Uning sevgisi bundan ham ortib boradi. Muqaddas Kitobda Xudo O'z xalqini *Masihda* sevishi aytiladi. Sevgi orqali Ota O'z O'g'lini O'z xalqi loyiq bo'lgan gunoh uchun, Xudo yoqtirmaydigan va jazolashi kerak bo'lgan fosiqlik uchun to'lov to'lashi uchun yuboradi. Masih shuning uchun o'lgan. Lekin *Masihda* Xudoning xalqi U loyiq bo'lgan Xudoning O'z haq O'g'liga bo'lgan mukammal, o'zgarmas va cheksiz sevgisini ham oladi.

Bu biz to'liq tushunib yetishga umid qila olmaydigan sirdir. Lekin Xudoning O'z xalqiga bo'lgan sevgisi O'z O'g'li uchun bo'lgan mukammal, abadiy sevgisining davomidir. Iso xiyonat sabab qo'lga olingan tunda U O'zi qutqarmoqchi bo'lganlarning xavfsizligi haqida ibodat qilar ekan, bizga Xushxabarning aql bovar qilmaydigan sirini oshkor qiladi.

Sen Menga bergan shuhratni Men ularga berdim, toki Biz bir bo'lganimiz kabi ular ham bir bo'lsinlar. Men ulardaman, Sen esa Mendasan! Ular ham birlikda mukammal bo'lsinlar, *toki dunyo Sen Meni yuborganingni hamda Meni sevganing kabi ularni ham sevganingni bilib olsin. . . .* Men ularga Sening

nomingni ochdim va yana ochaman, *toki Sen Meni sevgan sevging ularda bo'lsin*, Men ham ularda jo bo'layin". (Yuhanno 17:22–23, 26)

Masihda bo'lish – bu Otaning O'z O'g'liga bo'lgan sevgisi bilan yashash demakdir. Bu faqat Xudoning O'z xalqi gunohiga qaramasdan sevishi emas. Xudo ularni O'z O'g'li haq bo'lgani *uchun* sevadi. U ularni Isoni sevganday sevadi. Xudo O'z O'g'lini qanday sevgi bilan sevgan bo'lsa, endi ularni ham o'shanday sevgi bilan sevadi. Xudo O'z xalqiga qaraganda, O'z O'g'lining haqligini ko'radi va ulardan xursand bo'ladi.

## Shunday qilib, siz qanday qaror qilasiz?

Bu risolada men asosan quyidagi muhim savolga javob berishga harakat qildim: Xudo hammani sevadimi?

Muqaddas Kitob bizga beradigan qisqa javob shunday: Xudo hammani sevadi, lekin hammani birday emas.

Lekin Muqaddas Kitob bizga faqat ma'lumot yetkazish uchun yozilmagan. U O'z Kalomi sahifalarida bizga gapirish orqali bizni O'zi bilan munosabat o'rnatishga taklif qiladi. Men bu risolani quyidagi savol bilan yakunlamoqchiman: "Muqaddas Kitobning javobi siz uchun nimani anglatadi?" Bu haqida o'ylab ko'ring.

Risolaning boshida men Xudoning sevgisi haqida aytadigan gapim sizni hayron qoldirishi mumkinligini taxmin qilgan edim. Taxmin qilganimda quyidagini fikrni nazarda tutgan edim.

Bir tomondan, siz har doim Xudo hammani sevishiga ishongan bo'lishingiz mumkin. Bunga ko'pchilik odamlar ishonadi. Ehtimol, siz ko'pchilikning fikriga qo'shilgansiz.



Agar shunday bo'lsa, Xudoning sevgisi haqidagi fikringiz aslida Unga umuman e'tibor bermaslik uchun bahona bo'lib chiqishi mumkin. *Albatta, Xudo hammani sevadi! Bu Uning ishi. U menga kerak bo'lgan joyda bo'ladi. Shu vaqt ichida men o'z shartlarim bilan yashamoqchiman.*

Agar siz Xudoning sevgisi haqida shunday o'ylagan bo'lsangiz, xavotirlanishingizga asos bor. U hammani siz o'ylaganday sevmaydi. Xudoning sevgisi muqaddasdir. Ha, Uning sevgisi erkin, cheksiz va unga hamma erishsa bo'ladi. U O'z sevgisini baham ko'rishga xasislik qilmaydi. Lekin bu erkin sevgi Xudoning O'z xalqidan mana shu maxsus sevgisi ichida yashashni talab ham qiladi. Biz Undan ko'ra boshqa narsani ko'proq yaxshi ko'rganimiz uchun tavba qilishimiz va hamma narsani Uning O'g'li Isoga ishonib topshirishimiz kerak. U yo'l, haqiqat va hayotdir. Otaning oldiga olib boradigan Undan boshqa yo'l yo'q.

Boshqa tomondan, ehtimol, siz bu risolani Xudo hammani sevmaydi, ayniqsa meni hech qanaqasiga sevishi mumkin emas, degan ishonch bilan qo'lingizga olgan bo'lishingiz mumkin. Ehtimol, ich-ichingizda, Xudo *meni* sevadimi, degan savol bo'lgandir. Xudo meni seva olganmi?

Endi bu savolga berilgan hayratlanarli javob bu – Xudo O'z Kalomi orqali aniq berilgan javob bo'ldi, deb umid qilaman.

Ha, Xudo sizni sevadi, chunki siz Uning suratiday qilib yaratilgansiz. U sizning hayotingizga boshqa birorta mavjudotda bo'lmagan qadr-qimmatni berdi. Siz Uning sevgisini har kuni ko'rasiz. Siz o'pkangizni to'ldirib nafas olasiz. Egningizda kiyish uchun kiyimingiz bor. Yeyish uchun ovqatingiz bor. Xudo O'zi sevadiganlariga O'zini fido qilgani uchun sizda bularning barchasi bor.

Ha, Xudo sizni sevadi, chunki U gunohkorlarni sevadi. Siz Unga qarshi gunoh qilgan bo'lsangiz ham, U sizni sevadi. U sizni shunchalik sevadi, O'zining yagona O'g'lini bergan, toki siz Unga ishonib halok bo'lmang, balki abadiy hayotga ega bo'ling. Aslida, siz hozir Unga ishonish uchun bu taklifni o'qiyapsiz, chunki U sizni sevadi.

Agar siz Isoga ishonsangiz, agar siz o'zingizni qutqarish uchun o'zingizning kuchingizga tayanmay, Unga ishonsangiz, Xudo sizni O'z O'g'lini sevgandek sevadi. Bu sevgi siz hech qachon o'zingiz sazovor bo'la olmaydigan alangali, oltindek sof, o'zgarmas sevgidir. Bu Masih siz uchun qo'lgan kiritgan sevgidir. Xudo sizga qaraganda, Isoni ko'rgani uchun sizni sevadi. U ko'pincha hafsalangizni pir qiladigan zaifligingizga qaramaydi. U ko'pincha boshqalarga pand berib qo'yadigan muvaffaqiyatsizliklaringizga qaramaydi. Agar siz Masihda bo'lsangiz, U sizning asl kimligingizga

qaramaydi. Yagona Haq Zotning mukammal haqligi sizni to'liq qoplab oladi.

Endi siz uchun nima qoldi? Endi faqat Xudoning sizga atalgan sevgisida orom topish qoldi xolos.

Albatta buni aytish qilishdan ko'ra oson. Ichimizda biz olgan narsaga loyiq bo'lish istagi bor. Biz qatnashganimiz uchun kubok olgandan ko'ra, o'z kuchimiz bilan ko'krak nishonlarini olishni ma'qul ko'ramiz.

Lekin biz Xudo sevadigan haqlikni shu tarzda qabul qila olmaymiz. Biz boshqa bir kishi sazovor bo'lgan narsani qabul qilishimiz kerak va bu bizni kamtar qiladi. Xudo bizga Masihda beradigan sevgi mukofotini noloyiq tarzda qabul qila olmaymiz. Biz maqtanishni bas qilishimiz kerak. Lekin buning evaziga biz boshqa hech qayerda topib bo'lmaydigan himoyani olamiz. Bu himoya Otaning O'z O'g'liga bo'lgan abadiy sevgisi kabi mustahkamdir. Erishib bo'lmaydigan sevgini yo'qotib bo'lmaydi. Bu sevgida orom oling.



## Tavsiya etilgan manba

Muallif D. A. Carson, *The Difficult Doctrine of the Love of God* (*Xudo sevgisi haqidagi murakkab ta'limot*) (Wheaton, IL: Crossway, 2000).



## Izohlar

1. “Amerikaliklar o’zlarining Xudoga ishonishlarini aytganlarida, ular nimani nazarda tutadilar?” Pew Research Center, (Tadqiqot markazi) Aprel 25, 2018, <https://www.pewforum.org/2018/04/25/when-americans-say-they-believe-in-god-what-do-they-mean/>.
2. Muallif D. A. Carson, *The Difficult Doctrine of the Love of God (Xudo sevgisi haqidagi murakkab ta’limot)* (Wheaton, IL: Crossway, 2000), 17.
3. Muallif Samuel Crossman, “My Song Is Love Unknown,” (Mening qo’shig’im noma’lum sevgidir) 1664.
4. Muallif James Montgomery Boice, *The Minor Prophets*, (Kichik payg’ambarlar), vol. 1 (Grand Rapids, MI: Baker, 1983), 14.





## Muqaddas Kitobga Iqtiboslar

### *Ibtido*

|               |        |
|---------------|--------|
| 1 .....       | 26, 28 |
| 1:1 .....     | 23     |
| 1:26-27 ..... | 27     |
| 3-4 .....     | 30-31  |
| 12:2-3 .....  | 35     |

### *Qonunning takrorlanishi*

|                |    |
|----------------|----|
| 7:7-8 .....    | 38 |
| 10:14-15 ..... | 36 |

### *2-Yilnoma*

|            |    |
|------------|----|
| 6:14 ..... | 20 |
|------------|----|

### *Sanolar*

|              |       |
|--------------|-------|
| 13:2-3 ..... | 31-32 |
| 135:25 ..... | 29    |

### *Yermiyahning yig'isi*

|               |    |
|---------------|----|
| 3:22-23 ..... | 20 |
|---------------|----|

### *Matto*

|               |       |
|---------------|-------|
| 5:44-45 ..... | 29-30 |
|---------------|-------|

### *Mark*

|             |    |
|-------------|----|
| 10:45 ..... | 44 |
|-------------|----|

### *Yuhanno*

|                |               |
|----------------|---------------|
| 3:16 .....     | 11, 32-33, 35 |
| 14:6 .....     | 42            |
| 17:22-23 ..... | 45-46         |
| 17:24 .....    | 24            |
| 17:26 .....    | 45-46         |

### *Rimliklar*

|             |    |
|-------------|----|
| 10:13 ..... | 34 |
|-------------|----|

### *1-Korinfliklar*

|            |       |
|------------|-------|
| 1:26 ..... | 38-39 |
|------------|-------|

### *2-Korinfliklar*

|            |    |
|------------|----|
| 5:21 ..... | 44 |
|------------|----|

### *Efesliklar*

|               |            |
|---------------|------------|
| 1:3-6 .....   | 36-37      |
| 2:3 .....     | 43         |
| 2:4-5 .....   | 43         |
| 5:25 .....    | 37, 43, 44 |
| 5:26-27 ..... | 43         |

### *Titus*

|             |    |
|-------------|----|
| 3:3-5 ..... | 41 |
|-------------|----|

### *1-Petrus*

|            |    |
|------------|----|
| 3:18 ..... | 44 |
|------------|----|

### *1-Yuhanno*

|              |            |
|--------------|------------|
| 2:2 .....    | 34         |
| 4:8 .....    | 20, 23, 33 |
| 4:9-10 ..... | 33-34      |





# 9 Belgilar

SOG'LOM JAMOATLAR QURISH

## Sizning Jamoatingiz Sog'lommi?

9Marks (9Belgilar) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Expositions va'z
2. Xushxabar ta'limoti (doktrinas)
3. Yuqoridan tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zligi
5. Kalomga mos jamoatdagi tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash
7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibadat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

9Marks (9Belgilar)da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

**40dan ortiq tillardagi** kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/about/international-efforts/>

**uz.9marks.org**

Mashhur bolalar qo'shig'i "Iso meni sevadi, men buni bilaman" so'zlari bilan boshlanadi. Ba'zi odamlar Xudo tomonidan sevilganiga osongina ishonishadi, lekin boshqalar uchun bunga ishonish qiyin.

Ushbu risolada Matt MakKulloh bu mavzuni "Xudo hammani sevadimi?" degan savolga javob berish orqali yoritadi. Bizni Muqaddas Kitobda topilgan hayratlanarli javobga yo'naltirish orqali MakKulloh bizga Xudoning barcha odamlarga bo'lgan haqiqiy sevgisini va Unga ishonganlarga bo'lgan maxsus sevgisini ko'rishimizga yordam beradi.

Jamoatga doir Savollar to'plami bu jamoat hayotiga doir ko'p uchraydigan savollarga javob berish orqali o'rtamiyona masihiylarni sog'lom va hamma uchun ochiq bo'lgan kalomiy ta'limot bilan ta'minlashga intiladi. Har bir qism sog'lom jamoat amaliyotini va unga bag'ishlanishni rivojlantirish maqsadida kalomiy javoblar va amaliy xulosalar taqdim etadi.

**Matt MakKulloh** Tennessi shtatining Neshvill shahridagi Edjfield jamoatining cho'poni va "O'limni yodda tuting: Tirik umid tomon hayratlanarli yo'li" kitobining muallifi.